



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30601/2024.1.9)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 10.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF



Kuchkarova Arofathon Sadirdinovna

Andijan davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti (PhD)

Andijan viloyat Oltinko'1 tuman
ixtisoslashtirilgan maktabi matematika fani o'qituvchisi
Uzbekistan

tojiddinovaomina74@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0004-9325-1024>

RAQAMLI MUHITDA TA'LIMNI TASHKIL ETISH: INTERFAOL YONDASHUVLAR VA AKTNING DIDAKTIK TAMOYILLARI GEOGEBRA MISOLIDA

Abstract: This article examines the organization of education in the digital environment, interactive approaches, and the didactic principles of applying information and communication technologies (ICT) through the example of the GeoGebra software. GeoGebra is a powerful tool offering interactive and visual methods for studying mathematics, enabling students to acquire not only theoretical knowledge but also practical skills. The modern education system, particularly in areas such as geography, algebra, and geometry, leverages GeoGebra to engage students in scientific thinking and foster their participation in social and academic activities.

Keywords: Information technology, GeoGebra, digitalization, interactive, mathematics.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli muhitda ta'limni tashkil etish, interfaol yondashuvlar va AKT ning didaktik tamoyillari GeoGebra dasturi misolida ko'rib chiqiladi. GeoGebra dasturi matematikani o'rganishda interfaol va vizual usullarni taqdim etadigan kuchli vosita sifatida, o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallashga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim tizimi, ayniqsa, geografiya, algebra va geometriya kabi sohalarda GeoGebra dasturidan foydalanish orqali o'quvchilarni ilmiy fikrlashga, ijtimoiy va akademik faoliyatga jalb etishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, GeoGebra, raqamlashtirish, interfaol, matematika.

Аннотация: В данной статье рассматривается организация образовательного процесса в цифровой среде, интерактивные подходы и дидактические принципы применения информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) на примере программы GeoGebra. Программа GeoGebra является мощным инструментом, предоставляющим интерактивные и визуальные методы изучения математики, что помогает учащимся овладевать не только теоретическими знаниями, но и практическими навыками. Современная система образования, особенно в таких областях, как география, алгебра и геометрия, благодаря использованию программы GeoGebra позволяет вовлекать учащихся в научное мышление, социальную и академическую деятельность.

Ключевые слова: Информационные технологии, GeoGebra, цифровизация, интерактивный, математика.

Language: Uzbek

Citation: Kuchkarova , A. (2024). ORGANIZING EDUCATION IN THE DIGITAL ENVIRONMENT: INTERACTIVE APPROACHES AND DIDACTIC PRINCIPLES OF ICT APPLICATION THROUGH THE EXAMPLE OF GEOGEBRA. Universal International Scientific Journal, 1(9), 52–56. <https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.88.88.001>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14444640>

Crosreff: <https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.88.88.001>

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim sohasida qabul qilingan qarorlar va tashabbuslar mamlakatimizda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2020 yilning 6 oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "Ta'lim tizimini 2030 yilga qadar rivojlantirishga doir konsepsiya" ta'lim

tizimining zamonaviy va raqamli texnologiyalar asosida rivojlanishini ta'minlashni maqsad qilgan. Mazkur hujjatda ta'limni raqamlashtirish, interfaol va o'qituvchilarning AKT vositalaridan samarali foydalanishini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash kabi masalalar ko'tarilgan. Shavkat Mirziyoyevning bu boradagi qarorlari, xususan, "Ta'lim tizimini raqamlashtirish"ga

qaratilgan qator tashabbuslar ta'lim jarayonining sifatini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlarini kengaytirish va o'quvchilarga global miqyosdagi bilimlarni taqdim etish uchun zarur asoslarni yaratishga yo'naltirilgan. Ta'limni axborot texnologiyalari yordamida rivojlantirish, interaktiv metodlarni qo'llash va innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va axborotni selektiv ravishda qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi bilan bir qatorda interaktiv o'qitish usullarini qo'llashga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu maqolada raqamli muhitda ta'limni tashkil etish, interfaol yondashuvlar va AKT ning didaktik tamoyillari GeoGebra dasturi misolida ko'rib chiqiladi. GeoGebra dasturi matematikani o'rganishda interfaol va vizual usullarni taqdim etadigan kuchli vosita sifatida, o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARXI

Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatidan foydalangan holda ta'lim olish mumkin. Zero an'anaviy ta'lim o'z mavqeini

saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda [1]. Ilg'or xalqaro tajribalar tahlillaridan kelib chiqib, o'quvchilarning maktablarda funksional savodxonligini rivojlantirish amaliy faoliyat standartlarining bir nechta yo'nalishlarini qamrab oladi [2]. Bu yo'nalishlarning ichiga an'anaviy va zamonaviy o'qitish usullarini uyg'unlashtirib borish, o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda matematika darslarida interfaol ta'lim texnologiyalaridan loyiha, tadqiqot, evristik, keys, muammoli o'qitish kabi metodlardan unumli va o'z o'rnida foydalanishlar kiradi.

Raqamli texnologiyalar jarayonida kundan-kun yangidan-yangi yutuqlar qo'lga kiritilib kelinmoqda va bu inqilobiy texnik yutuqlar zamonaviy ta'lim tizimida juda katta imkoniyatlar eshiklarini ochib bermoqda [3]. Umuman olganda raqamli va samarali axborot almashinuvi, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning, ayniqsa maktab o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy manbalari va resurslari bo'lib xizmat qilishi ilmiy va amaliy darajada yagona ma'noda tan olingan [4].

METODOLOGIYA

GeoGebra dasturining pedagogik metodik asoslari, asosan, quyidagi

yondashuvlarga tayanadi:

Funksional yondashuv: O'quvchilarga matematik funktsiyalarni grafik, algebraik va geometrik shakllarda tahlil qilish imkonini beradi. Bu metod o'quvchilarning abstrakt fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Konstruktivizm: O'quvchilarni o'rganish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. GeoGebra orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil ravishda sinab ko'rishlari, o'z xatolaridan saboq olishlari mumkin.

Ko'rsatuvchi metodlar: GeoGebra dasturi o'quvchilarga matematik tushunchalarni aniq va sodda tarzda tushuntirish imkonini beradi. O'qituvchi dastur yordamida turli xil matematik tushunchalarni vizual tarzda namoyish etadi.

Muammoni yechish metodlari: GeoGebra dasturi o'quvchilarga muammolarni yechishda analitik va kreativ yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi, bu esa o'quvchilarda masalalarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida GeoGebra dasturini kengroq qo'llash, o'qituvchilar uchun maxsus metodik qo'llanmalar va treninglar tashkil etishni talab etadi. Bu o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishlarini ta'minlaydi va ta'limning sifatini yanada oshiradi.

TADQIQOT NATIJASI.

Raqamli ta'lim muhitining o'zi o'qitish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu o'qituvchilarga yangi texnologiyalar yordamida o'quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarish va interfaol shaklda tashkil etish imkoniyatini beradi. O'quvchilarning o'qitish jarayonidagi faoliyatini rag'batlantiradigan, ularni o'rganishning yangi shakllari, metodlari va texnologiyalari bilan tanishtiradigan muhitda pedagogik yondashuvlar o'zgarmoqda. Interaktiv ta'lim metodlari o'quvchilarga nafaqat passiv axborot qabul qilish, balki o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llash, tahlil qilish, va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Interfaol yondashuvlar va AKTning didaktik tamoyillari

Interfaol yondashuvlar va AKT ning didaktik tamoyillari ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishda asosiy vositalardan biridir. Ushbu tamoyillar quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'linadi:

Tegishlilik (Relevance): O'quvchilarga axborot va bilimlarning amaliy ahamiyatini ko'rsatish va ular o'rganayotgan mavzularni real hayot bilan bog'lash. GeoGebra yordamida o'quvchilar matematik modellarning real dunyodagi qo'llanishini ko'rishlari mumkin.

Faollik (Activity): O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini ta'minlash. Interaktiv

dasturlar, jumladan GeoGebra, o'quvchilarning o'z bilimlarini amalda qo'llashga, masalalarni hal qilishda faollik ko'rsatishga undaydi.

Individual yondashuv (Individualization): Har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos ta'limni tashkil etish. GeoGebra orqali o'quvchilar o'z vaqtida va o'z sur'atida o'rganishlari mumkin, bu esa ta'limning shaxsiylashtirilgan tarzda rivojlanishiga yordam beradi.

Ko'pformatlilik (Multimodality): Ta'lim jarayonida turli formatlarni qo'llash – matn, rasm, video, audio va interaktiv grafikalar. GeoGebra dasturida taqdim etilgan grafik va animatsiyalar yordamida o'quvchilar matematik tushunchalarni vizual tarzda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Raqamli ta'lim muhitida GeoGebra kabi interaktiv vositalarning qo'llanilishi

o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, va kreativ yechimlarni izlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'ladi. Bu dastur ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi, o'quvchilarning bilim olishda faolligini oshiradi. GeoGebra dasturining metodik yondashuvlari va didaktik tamoyillari zamonaviy ta'limda o'quvchilarni yanada mustahkam bilimga ega qilishga, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, interfaol va AKT asosida qurilgan ta'lim jarayoni o'qituvchilarning pedagogik ko'nikmalarini ham oshiradi. O'qituvchilarni GeoGebra kabi dasturlar yordamida interaktiv ta'lim metodlarini qo'llashga o'rgatish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. F.Boqiyev "Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish omili sifatida" (2024) "Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: Xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami 6-9-betlar, Guliston<https://doi.org/10.5281/zenodo.10867867>
2. Schoenfeld, A.H. "Learning to think mathematically: Problem solving, metacognition, and sense-making in mathematics", in D. Grouws, (ed.) Handbook for Research on Mathematics Teaching and Learning, MacMillan, New York, 1992, pp. 334-370.
3. Raqamli texnologiyalar deganda nima tushuniladi? <https://ict.xabar.uz> IT-хуқуқ: (xabar.uz). Murojaat vaqti: 8.03.2024.
4. Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации. -М.: ВЛАДОС, 1994. - 336 с